



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Qonun, qaror, farmonlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni//O'z Axborot agentligi. 2019-yil 10-oktabr.
2. Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 6-aprel.
3. Umumiy o'rta ta'limning informatika fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. T.: 2017-yil.

Ilmiy maqolalar

4. Mammatjonova A.S. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish chora- tadbirlari. Toshkent: 2022.

Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar

5. Aripov M. M., Lutfullayev M. X., Informatika va axborot texnologiyalari. Toshkent: Universitet, 2017. O'quv qo'llanma.
6. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M., Axborot texnologiyalari. Toshkent: Noshir, 2009

Foydalanilgan internet saytlari

7. www.ziyonet.uz
8. www.pedagog.uz
9. uz.m.wikipedia.org.

SAID AHMAD VA OZOD SHARAFIDDINOV ESSELARIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING ISHLATILISHI

Nasridinova Gulbahor O'ktam qizi

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi metodik xizmat

ko'rsatish bo'limi

ona tili va adabiyot fani metodisti



Annotatsiya: Maskur maqolada o‘zbek adabiyotida esse janrida badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi masalasi Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov esselari misolida yangicha bir tamoyili asosida tatqiq etilgan. Adiblarning yozgan esselari o‘ziga xos uslubga, mahoratga va qarashlarga ega ekanligi ilmiy asoslangan. Shundan kelib chiqib, yozuvchilarning esselarini, essenavislik badiiyatini va obrazlilik masalasini tahlillar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Trop(ko‘chim), metafora, sinekdoxa, ekspressivlik, xarakter, uslub, obrazlilik. **Annotation:** In this article, the issue of the use of artistic image tools in the essay genre in Uzbek literature is investigated based on a new principle, based on the example of the essays of Said Ahmad and Ozod Sharafiddinov. It is scientifically proven that essays written by writers have their own style, skills and views. Based on this, the essays of writers, the art of essay writing and imagery.

Keywords: Trope, metaphor, synecdoche, expressiveness, character, style, imagery.

Essenavslkda badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi masalasi alohida o‘rganilishi talab etiladigan jihatlardan biridir. Nasrning roman, qissa, hikoya singari janrlarida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarning mavjudligi ushbu masala esselarda ham ko‘rib chiqilishda ehtiyojni asoslaydi. Said Ahmad ijodida esse va badi‘alar salmoqli o‘rin tutadi. Adibning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” xotira-esselari to‘plangan kitobiga yigirma oltita essesi kiritilgan. Adib ularning har birida badiiy tasvir vositalaridan unimli foydalangan. Shu jihatdan Ozod Sharafiddinov esselarida qahramonlarning xarakterini ko‘rsatishda, mavjud jamiyat haqida ham kitobxonga tasavvur berishda badiiy tasvir unsurlariga tayangan. Ma‘lumki, badiiy asar tilining ta‘sirchan bo‘lishi til birliklarining to‘g‘ri tanlanishi, matn mazmuniga mos tushushi va asarda yozuvchi ko‘zlagan maqsadni amalga oshirishda muayyan uslubiy vazifani bajarishiga bog‘liq. Yozuvchi til birliklaridan foydalanishda asar mavzusidan kelib chiqib, o‘zi tasvirlayotgan shaxsning xarakter xususiyati, harakat-holatini aniq ifodalaydigan, kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantiradigan so‘z va iboralarni qo‘llashga intiladi. Badiiy asarda matn ruhiga mos keluvchi til birliklarining qo‘llanishi asar tilining jozibador, ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlaydi. Said Ahmad va O. Sharafiddinov esselarida XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalari bilan bog‘liq voqea-hodisalari qalamga olinadi. Mavzu qoidasiga ko‘ra



tasvirlanayotgan davr va qahramon xarakterini ochib berishga xizmat qiluvchi badiiy tasvir va ifoda vositalari tanlab olinadi. Bu esa badiiy uslubga xosdir. O‘zbek tilida ko‘chma ma’no tashuvchi badiiy tasvir vositalari ko‘p. Ular badiiy uslub jilolarining turli qirralarini ko‘rsatish bilan birga ona tilimizning naqadar boy va nafis ekanligini namoyon qiladi. Tilning jozibadorligi va adabiyotning rang-barangligi bir qator badiiy tasvir vositalariga bog‘liqdir. Ma’lumki, nutq jarayonida biz so‘zlarni o‘z ma’nosida yoki ko‘chma ma’noda qo‘llashimiz mumkin. So‘zning odatdagi ma’nosidan o‘zga ma’noda qo‘llanishi semantik sathdagi og‘ish sanaladi. Ko‘chma ma’no beruvchi so‘zlar trop (ko‘chim) deb ham yuritiladi. Badiiy adabiyotda troplarning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari turlari mavjud. Badiiy asarlarda bo‘lgani kabi ko‘chimlar esseda ham badiiy bo‘yoqdorlikni oshirishda, ta’sirlilik darajasini yuzaga chiqarishda, obrazlilikni kuchaytirishda muhim unsur vazifasini bajaradi. Troplar tarkibiga kiruvchi badiiy tasvir vositalarining asosiylaridan biri metaforalarning esselarda ishlatilishi muhimdir. Metafora usulidagi ma’no ko‘chishida narsa–hodisalar orasidagi o‘xshashlik inobatga olinadi. Adabiyotshunos D.Quronov “metaforani yashirin o‘xshatish deb ataydi. Bunga sabab shuki, metaforada o‘xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o‘xshayotgan narsa uning ma’nosini bildiradi”,-⁹deydi. Metaforalarni lisoniy va xususiy-mullif metaforalariga ajratamiz. Lisoniy metaforaga atash, nomlash vazifasini bajaruvchi ko‘chma ma’no tashuvchi so‘zlar kiradi. Misol uchun uzukning ko‘zi, insonning ko‘zi, shunga o‘xshash. Xususiy-muallif metaforalariga esa ijodkorning o‘zi tomonidan yaratilgan obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘lganlari kiradi. Bu usuldagi metaforalarda qahramonning his-tuyg‘ulari ta’sirchan, yorqin bo‘yoqda beriladi. Masalan, Said Ahmadning Oybekka atab yozgan xotirasida qahramonining hikoyalarini saviyasini roman darajasida deb o‘tirmaydida, “Ulardan “Qutlug‘ qonning hidi kelib turardi”¹⁰, deb qo‘ya qoladi. Aynan hid so‘zi Said Ahmad esselarida ikki marta tasvirlovchi vosita vazifasini bajargan. Ikkinchi ma’nosi salbiy kuchga ega bo‘lib unda G‘.G‘ulomga nisbatan uyushtirilgan fitnalar tasvirlangan, “Maqoladan o‘ttiz yettinchi yilning qo‘lansa hidi burqusib turardi”¹¹, bu gaplardan muallif qatag‘on, bir-birini ustidan

⁹Quronov D. Adabiyotshunolikka kirish. -T. :Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 127-bet.

¹⁰Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. -T. :Sano-standart, 2014. 9-bet.

¹¹O‘sha kitob. 75-bet.



yolg'on ayblar to'qib qamatish kuyiga tushib qolgan davr koloritini eslatayotganini ko'rish mumkin. Said Ahmad Abdulla Qahhor shaxsiyatini ko'rsatishda quydagicha yo'l tutadi. "Abdulla Qahhor qahri qattiq, mehri yumshoq ustoz edi"¹². Bu gapda ham metafora usulida ma'no ko'chishi yuz bergan, bu hodisa "qahri qattiq", "mehri yumshoq" birikmalari tasirida bo'lgan. Said Ahmad Said Zunnunova vafotidan keyingi xayollarini tabiat uning jiyda daraxtining gullari misolida ko'rsatadi. "Ko'chamizdagi bir tup jiyda shoirani qumsab har bahor gullaydi. Uning beg'ubor hidlari shoirani qidirib, hovlimizda bir-ikki aylanib, yana allaqayerga bosh olib ketadi"¹³. Bu yerda - qumsab, qidirib, aylanib, bosh olib-so'zlari jiyda guliga qiyosan aytilib, metaforaning harakat o'xshatishini hosil qilgan. Said Ahmad O.Sharafiddinovning gapga ustaligini "Ozod ham gapning qon bosimini tomir ushlaymay turib biladi",¹⁴ so'zlar yordamida badiiy tasvirini berib, kitobxonga tanitadi. Bu ishni amalga oshirgan kuch esa "gapning qon bosimi" degan metafora birikmasidadir. Said Ahmad essellarida metaforalar badiiy tasvirning to'laqonli chiqishida, ekspressivlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etagan. Shunday ekan, tasviriy vositalar badiiy asar tilining jozibador, ta'sirchan bo'lishini taminlashda, personajlar nutqini individuallashtirishda, voqea-hodisalarning real tasvirini berishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Endi aynan bu masalani Ozod Sharafiddinov essellarida qanday foydalanilgani haqida to'xtalamiz. "Uning butun vujudidan she'r quyulib kelayotganga o'xshardi"¹⁵. Muallif G'.G'ulom talantini, she'r yozishdagi mahoratini yuqoridagi quyilib kelardi jumlasida tasvirini berolgan. Muallif xuddi shunday badiiy tasvir vositalarini Sarvar Azimov siymosini ko'rsatganda ham ishlatgan. "Uning butun vujudidan salobat yog'ilib turardi"¹⁶, "Adabiyotimizga ming rahmat ko'zimizdagi og'ir pardalarni olib tashladi",¹⁷ deb O.Sharafiddinov zamon undagi insonlar onggi, ma'naviyatini og'ir pardalar olib tashlandi birikmasi yordamida tasvirlagan. O.Sharafiddinov sakson yoshli Said Ahmadni umumiy ahvolini gapirganda uning yoshiga nisbatan shijoatligi, ijodidagi yangi burulishlarning yuz

¹²Osha kitob. 145-bet.

¹³O'sha kitob. 202-bet

¹⁴Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. -T. :Sano-standart, 2014. 268-bet.

¹⁵Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T. :Sharq, 2004, 262-bet.

¹⁶Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T. :Sharq, 2004. 454-bet

¹⁷O'sha kitob. 275-bet.



berib turganini “Qanday qudrat ilhom bulog‘ining ko‘zini ochib yubordi”¹⁸ deb o‘xshatish qiladi. Bu yerda bulog‘ning ko‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib yuzaga chiqmay turgan iste’dod birdan ko‘rinib qolishi berkitilgan buloq to‘siqlari olinganda birdan otilib chiqayotgan suvga o‘xshatilgan. O. Sharafiddinov shoira Zulfiya ijodi va shaxsiyatini ochib berishda qo‘llagan. “Ko‘pgina she’rlarida Zulfiya opa o‘zining “kemtik baxti” haqida gapirardi”¹⁹. Aynan shu tushuncha shoira taqdiriga ishora tarzida tasvirlangan baxtiga o‘xshatish qilinayapti. Muallif bu yerda shoiraaning umr yo‘ldoshidan erta ajralganini va bu ayriliq azoblari she’rlarida ham bilinayotganini tasvirini bergan. O. Sharafiddinov Abdulla Oripovni o‘ziga yaqinligini “Abdullajon, o‘ylab qarasam, mening hayotimga ancha singib ketgan ekan” gaplarida “singib ketgan ekan” birikmasini qo‘llab, oralaridagi yaqinlikni ko‘chma ma’noda beradi. “Abdulla bilan o‘rtamizdagi munosabatlar tez orada oddiy domla shogirdlik munosabatlari doirasidan o‘sib chiqdi”²⁰. Bu gapda o‘sib chiqdi birikmasi ham munosabatlar yaqinligi, oralaridagi mehr-muhabbat shakllanganining tasvirini beradi. “Shunday qilib, she’riyatimiz oqshomida yangi yulduz paydo bo‘ldi”²¹, bu parchada muallif A. Oripovni adabiyot olamiga kirib kelishini yangi yulduzga o‘xshatgan. O. Sharafiddinov ijodida ham metafora usulidagi ma’no ko‘chishiga oid misollar ko‘plab vaziyatni, shaxslarni tasvirlashda maromiga yetib ishlatilgan. Troplarning yana bir turi sinekdoxa bo‘lib, bu ma’no ko‘chish usuli o‘xshashlikka yoki aloqadorlikka ham qaratilgan bo‘lib, asosan ularda miqdoriy belgi yetakchilik qiladi. Butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan aksincha esa qism nomini butun narsaning nomi bilan atashga aytiladi. Adabiyotshunos D. Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” kitobida sinekdoxa usulida ko‘chadigan birikmalar haqida shunday deydi: “Badiiy asarlarda atoqli otlarning turdosh ot ma’nosida qo‘llanilishi ham sinekdoxaning bir ko‘rinishi deb qaraladi”²². Shu qoydadan kelib chiqib unga mos keladigan misolni Said Ahmadning G‘. G‘ulomga atab yozganlarida uchratamiz. “G‘afur aka O‘zbekistondagi bedilxonlarning eng zo‘ri hisoblanadi”²³.

¹⁸O‘sha kitob. 365-bet.

¹⁹O‘sha kitob. 371-bet.

²⁰O‘sha kitob. 386-bet.

²¹O‘sha kitob. 382-bet.

²²Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T. : A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, -2004. 131-bet.

²³Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T. : Sano-standart, 2014. 38-bet.



Esselarda badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi essening badiiy asar bo'lib shakllanishida muhim bir vazifani bajargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Said Ahmad va O.Sharafiddinovlar esselarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari shaxslar va jamiyatdagi biror hodisa yoki holatni ifodalaganda ham, qahramonlarining hamda o'zlarining ichki dunyosi va ma'naviy takomilini yoritganda ham so'zni g'oyatda tabiiylik bilan qo'llashida asqotgan. Natijada biz esselarni o'qiganimizda hayot hodisasi yuz berayotgan jarayonni ko'rib turgandek bo'lamiz. Har ikkala ijodkarlarimiz tasvirida tilimiz o'zining qudratini, keng imkoniyatini, boyligini, go'zalligini namoyon etgan bo'lib, har qanday nozik tushunchani, nozik ma'noni ham ifodalashga qodir ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Said Ahmad va O.Sharafiddinov hayotiy haqiqatlarni, ijodkorlar nutqini adabiy-badiiy davraga olib kirishi adabiyotimiz taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Ijodkorlarning tilning nihoyatda rangdor va tiniq ifodalashi natijasida essedagi aytilayotgan fikrlarni tezda yorqin anglaymiz. Bu natijani albatta, badiiy tasvir vositalarni ishlatilishidagi o'rni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. -T.: Sano-standart, 2014.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T.: Sharq, 2004
4. Sharafiddinov O. Zamondoshlar xotirasida, -T.: Sharq, 2019.
5. <https://kh-davron.uz>. Esse-erkin ijod. Shukur Xolmirzayev bilan suhbat. 2018.29.09.

TA'LIMDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH DAVR TALABI

Surmaxon Ismoilova

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullaridan dars jarayonida foydalanish, har bir o'qituvchi o'z faoliyatining innovatsiyalar asosida tashkil etsa, ya'ni darslarni yangi